

Aeroport gavjum edi. Hamma qayoqqadir shoshar, negadir barcha shodon, titroq qo'llari bilan hassasini tutgancha, xira tortgan ko'zlarini odamlarga tikib o'tirgan bu chol bilan hech kimning ishi yo'q edi. Ba'zi ko'ngli bo'shlar esa uning yonidan o'tayotib chaqa tashlab ketishardi, lekin chol tangalarga qarab ham qo'ymasdi. U bu yerga ko'p keladi. Ayniqsa, oxirgi paytlarda tongdan kechga dovur shu yerda. Quyosh nurlarini baland binolar ostiga ola boshlagach, istamaygina uyi tomon yo'l oladi. Kelini Lizaga bildirmay xonasiga qamaladi. Tunlari esa xotiralar qiynaydi. Negadir otasi yodiga tushaveradi. "Iloyo, o'zingdan qaytsin", deb o'tkir nigohlarini tikkan edi u. Hartugul, otasiga uncha qiyin bo'lmagandi. Ismat "kerakli joylarga" otasining "qilmishlari" haqida yetkazdi: o'tmish sarqitlari - bolaligida onasi uzun kechalarda mutolaa qilib beradigan dilgir g'azallar, diniy o'gitlar, hadislarini xufyona saqlashini sotib berdi. Tug'ri, o'sha payt "sotdim" demasdi, nima bo'пти, otammi, boshqami, muhimi, davlatni bitta dushmandan tozaladim, deb o'ylardi. Partiyam uchun xizmat qildim, deb majlislarda ko'kragini kerardi, hammaga "namuna" bo'lardi. Otasini ko'p siquvga olishdi. O'rtaga onasini tiqishtirishgach, Mahkam ota indamay imzo chekdi. Ha, baribir otasiga o'zi kabi qiyin bo'lmagandi, axir yonida hamdardlari bor edi. Onasi suyanch bo'ldi, opasi, ukalari tirgak edi, yolg'iz qo'yishmadi to qamoqda vafot etguncha Ismatni-chi? Yonida kimi bor? Xotinga yolchimadi. To'rt marta uylandi. To'g'ri, ular o'zbek ediyu lekin qandaydir Enaxonga o'xshamasdilar. Enaxon boshqacha edi, Ismat buni kech angladi, juda kech Ismat bo'g'ilib derazani ochdi. Quyoshning chiqishini kuta boshladi. Shu payt qaerdandir azon ovozi eshitildi. Ismat avvaliga anglamadi. Keyin tuyqus esiga tushdi. Otasi azon aytardi. Oxirgi marta qachon eshitgandi? Ellik yildan oshdi-yov. Balki undan ham ko'pdir lekin unutmapti, unutulmaydiyam. Ha, otasi masjidda azon aytardi. Ovozida yurakni entiktiruvchi bir nima bor edi. Keyin masjidlar yo'qotildi. Ismat ham qanchasini aniqlab, buzdirtirib tashladi. Qizik, bu ovoz qaerdan kelayaptikin? Yo qulog'iga chalinayaptimikin, bilolmadi

Ismat birdan nabirasini ko'rgisi kelib ketdi. Yigirma yil burun ota-onasi uni harbiy internatga yuborishgandi. Avval ko'p kelardi. Ulg'aygach, kelmay qo'ydi. Yaqinda uylandi, deb eshitdi. Lekin Liza buni to'ydan qaytgach aytdi. Ismat baribir xursand bo'ldi. Avlodining davomchisi shu axir

Ismat uchta xotinidan ham farzand ko'rmadi. Oxiri, sal yengiltakroq bo'lsa-da, to'rtinchisiga uylandi. Undan o'g'il ko'rди. Va ko'p o'tmay xotini o'g'lini tashlab, Ismatning bor-budini shilib o'ynashi bilan qochib ketdi. Ismat o'g'li bilan shumshayib qolaverdi. Uni katta qilaman, deb kirmagan teshigi, qilmagan ishi qolmadi hisob. Oqibat nima bo'ldi? O'g'li ham onasiga tortdi. Dadasi topgan pulga ichadigan g'irt takasaltang bo'ldi. Harholda, Lizaga uylangach, sal odamga o'xshab yashay boshladi. Ismat o'g'lini kam ko'radi. O'g'li ham uni yo'qlab xonasiga kirmay qo'ygan.

Ismat biladi bu barcha gunohlari uchun berilayotgan jazolar. Bu dunyodagisi shu bo'lsa, oxirat haqida o'ylasa yuragi orqaga tortadi. U qo'rqadi, juda qo'rqadi Og'ir xayollar bilan tong ottirgan Ismat o'sib ketgan soqolini siladi-da, qandaydir hafsula bilan qirtishlay boshladi. Keyin uniqib ketgan kiyimini alishtirdi, qo'li bilan dazmol qilgan bo'ldi. Va yana aeroport tomon yo'l oldi. Nega bu yerga kelaveradi, o'zi ham tushunmaydi. Balki turli davlatlardan turli xil odamlarning tashrifi, ularning o'z yurtlari nafasini olib kelayotgani uchundir. Axir ular orasida O'zbekiston ham bor Ismat doimiy o'rindig'iga cho'kdi. Qo'lga kitobini olib, qiyshiq ko'zoynagini taqdi: so'nggi paytlarda Mashrabni o'qiydi. Asli o'zining tilida bor-yo'q kitobi ham shu. Ikki yil burun xuddi mana shu yerda bir o'zbek otaxon bergan edi. Avvaliga chang bosib yotdi. Ammo keyinchalik bu misralarsiz turolmay koldi. Onasining ohangi yodiga tushaveradi. Sohир ovozda shu g'azallarni o'qir edi-ya

- Otaxon, o'zbekmisiz? - bir cholga, bir uning qo'lidagi kitobga qarab turgan notanish yigit uning xayollarini to'zg'itib yubordi.

- Ha - Ismatning yuragi tez-tez urib ketdi. - O'zbekman

- Samolyotdan tushiboq, dunyoning u chekkasida o'z yurtning odamini uchratish - yigit sevinib ketdi. Keyin qo'lini uzatdi. - Ismim Azamat, ota, sizga O'zbekistondan alangali salomlar!

Ismat o'rnidan turdi.

- O'zbekiston mustaqil bo'ldi, deyishadi, rostmi, o'g'lim? - Ismatning ko'zlari g'iltilladi.

- Albatta. Anchadan beri bormagan ko'rinasiz?

- Ha ko'p bo'ldi.

Yigit juda odamoxun, xushchaqchaq ekan. O'zbekiston haqida ancha so'zlab berdi. Keyin esa ketdi. Bu yerga ish bilan bir haftaga kelgan ekan. Ismat yana og'ir xayollar ichida qoldi.

Bir hafta o'tgach, Ismat yigit qaytar, deb sahardan beri odamlarni kuzatardi. Maqsadi, unga bir omonat gap yetkazish Enaxon va o'g'li Abdukarimga

- Ie, ota sizmisiz? - yon tomondan kelgan ovozdan Ismat quvonib ketdi. Bu Azamat edi.

- O'g'lim, seni kutayotgandim. Yurtimga, bir odamga omonat gapim bor

Azamat o'ylandi.

- Ota, o'zingiz bora qolganingiz durustdir, balki. Ona yurtga ketish vaqti yetdi, endi erkinmiz. Men bilan keting, ota.

Ismat yerga qaradi.

- Ketolmayman, o'g'lim

Azamat cholning yelkasidan tutdi.

- O'zim olib ketaman, otaxon. Savob ham kerak. Xarajatini o'ylamang

Ismat yarq etib unga qaradi. Go'yo hozir yurtini ko'radigandek yuragi hapqirib ketdi.

- Axir o'g'lim, senga tag'in og'irligim tushib

- Omanatingizni o'zingiz yetkazasiz, ota. Keyin qaytaman, desayiz o'zim kuzatib yuboraman.

Ismat samolyotda o'tirar ekan, negadir tush ko'rayapman, deb o'ylardi. Nahotki bir necha soatlardan so'ng

- Ota, agar bobom hayot bo'lganlarida ularga yaxshi hamsuhbat olib kelayotganimdan quvonardilar

- Ha, keksachilik, o'g'lim.

- Bobomni ko'rish nasib qilmagan-da, ota. Ular otam ikki yasharligida olamdan o'tganlar. Xudoga shukur, buvim hayotlar. Bobom vafot etgach, turmush qilmay, otamni o'stirdilar. Ko'p qiynalganmiz, deydilar. Hozir dadam ham, onam ham ularni yeru ko'kka ishonishmaydi. Yaqinda Hajga yuborishmoqchi

- Niyatlariga yetishsin, - Ismat Enaxonni esladi. Qiziq, u turmushga chiqqanmikin? Shuncha bergan azoblariga miq etmay chidardi. Lekin bir kun g'azabdan titrab pichirlagan: "Iloyo, mana shu qo'llaringiz". Yo'q, qarg'amagandi, hatto gapini tugatmagandi ham. O'shanda Ismat Qur'oni Karimni uloqtirgandi!

- Farzandlaringiz bormi, ota? - iymaniy so'radi Azamat.

- Ha, bor Ikki o'g'lim bor. Biri u yerda, biri bu

- This is not registered version of TotalDocConverter

- Dijo Ismatning otasi, Azamat shunday esa darvoz bo'lib yuquga ketdi.

Ismat yana azobli xotiralar girdobida qoldi. Otasi qamalgach, hamma qarindosh-urug'i undan yuz o'girdi. Faqat Enaxon negadir uni tashlab ketmadi. U qandaydir umid bilan yashardi. Erim bir kun iymonga kirar, derdi. Ba'zan yurak yutib "Oллоhga shak keltirmang", deb Ismatga so'z qotardi. Ketidan kaltak yerdi. "Agar tepadagilar eshitsa bormi, sen dinparastga qo'shib meni yam yo'q qilishadi. Kimsan Ismat Xoltoevning xotini shunday desa? Yig'ishtir safsatangni!". Ismatning "siri" baribir ochildi. Bir ikki g'alamislar Ismat uyida Qur'onni saqlashini oshkor qilishdi. Ismatning o'zi ham bilmasdi bu haqda. Enaxonga ona meros bu kitobni ko'rpa qatidan izlab topdi-da, xotininining qo'lga osilib yolvorishiga qaramay, ko'chaga - daraxt yonidagi anhora uloqtirdi. Bo'tana loyqa suv uni bir yamlab yutdi. Enaxon shunda tushundi: bari umidlari bekor ekan Ismat baribir qutulib qolmasligini angladi. Endi uni tinch qo'yishmaydi. Ishonishmaydi shuncha yillik xizmatlari bir pul! U qochdi. Ha, bor pulini cho'ntakka joylab hech kimga hech nima demay tunda uyidan chiqib ketdi. Darvozadan chiqar ekan, ichkaridan o'g'lining uyg'onib xarxasha qilganini eshitdi. Enaxon uni ovutdi. Ismatning negadir ichkariga kirgisi, o'g'lini bag'riga bosgisi keldi. Lekin oyoqlari ko'cha tomon boshladi.

- Keb qoldik, ota, - Azamatning o'ktam ovozi Ismatni ko'zini ochishga majbur kildi. - O'zbekistondamiz!

Ismat negadir qo'rqa boshladi, qo'llari titradi. Onasi Ismat 4-5 yoshligida musichaga ozor berma, qo'llaring qaltiroq bo'lib qoladi, deb uqtirardi. Ismat bu gaplarga amal qilardi. O'rtoqlari roqatkada musichaga tosh otganini ko'rsa, ular bilan yoqalashardi ham. Ha, qushlarga ozor bermasdi Ismat. Lekin necha-necha oilalarning sho'rini quritdi, qancha musichadek beozor bolalarni tirik yetim qildi.

Samolyot qo'ndi. Ismat Azamatning yordami bilan zinalardan pastga tusharkan, unutilib ketgan xavodan to'yib simirdi. Atrofga qorong'ulik cho'kkan edi. Afsus, quyoshni ko'rmadi-da.

- Uyimiz olis emas, ota, yana biroz qiynayman sizni. Borgach damingizni olasiz. Hoynahoy hamma kutib o'tirgandir. Ayniqsa, qizcham

- Oilaliman, degin

- Ha, bir o'g'il, bir qizim bor, xudoga shukur.

"Xudoga shukur"! bu jumlaning qancha bo'ldi eshitmaganiga. Onasi har gapining birida takrorlardir. Hatto bir kun Ismat daraxtdan yiqilib qo'li singanda ham "xudoga shukur-ey, boshqa yering sinmapti", deb bag'riga bosgandi. Ismatning ko'zlari namlandi. Mashinadan tushishgach, Azamat cholni suyab oldi. Ismat tinmay qaltirar, yuragi gup-gup urardi.

- Mana, keldik, ota

Ismat qarshisidagi baland darvozali naqshinkor uyga qaradi. Qo'ng'iroq chalingach, ichkaridan xushro'y bir juvon ko'rindi.

- Assalomu alaykum, dadasi, yaxshi keldingizmi? - so'ng esa mehmonga yuzlanib u bilan quyuq salomlashdi.

- Vaalaykum assalom, yaxshi o'tiribsizlarmi? - Azamat ichkariga kirgach, xotiniga imo qildi - "Yaxshilab dasturxon tuza!".

Kelin ularni mehmonxona tomon boshladi. U yerda Azamatning ota-onasi o'g'lini kutib o'tirardi. Ularning xuddi ancha yillar ko'rishmagandek quchoqlashib diydorlashishlaridan Ismatning yuragi orziqib ketdi. Azamatning dadasi mehmonni to'rga boshladi. Shu payt eshik ochilib, bir qo'lida choynak ko'targan kelin va uning yonida bir keksa onaxon kirib kelishdi.

- Buvijon! - Azamat ular tomon oshiqdi.

Ismat bu kampirni qaerdadir ko'rganday bo'ldi. Biroq eslolmadi Xonani kuzatar ekan, birdan ko'zi devorda osig'liq turgan eski bir suratga - Enaxonning va o'zining suratiga tushdi. Ismat karaxt bo'lib qoldi. Qo'llari titrar, chuqur-chuqur nafas olar, atrofdagilarning gaplarini umuman anglamasdi. Shu payt tanish ovoz eshitildi.

- Keling, mehmon

Ismat ovoz kelgan tarafga alangladi. Qarashi bilan esa Enaxonni tanidi. Avvaliga Enaxon ham biroz tikilib turdi. So'ng birdan hushini yo'qotib yerga yiqilayozdi. Azamat uni suyab qoldi. Hamma ular tomon oshiqdi. Enaxonni olib chiqib ketishdi, g'ala-g'ovurdan foydalangan Ismat esa sirg'alib darvozadan chiqib ketdi.

Mahalla kimsasiz Ismat sal narida oqayotgan kichik anhorchaga ko'zi tushdi. O'sha gunohiga guvoh anhor-ku! Ismat suv yoqalab ketaverdi. Qaerga va ne maqsadda, bilmasdi. Enaxonga atalgan omonat gapi esa tilida tinmay aylanardi:

- Meni kechir, Enaxon kechir nobakor otangni, o'g'lim

Ismat bir uy qarshisida to'xtadi. Shu payt u yerdan azon ovozi eshitildi. Ha bu yer masjid, xufton namoziga chorlov edi.

- Ota, sizmi, ota?! - Ismat azondan sehrlandi. - Haliyam shu yerdamidingiz, otajon? Nihoyat topdim sizni. To'xtamang, ota, azon aytishingizni qo'msab keldim

Ismat yerga cho'kdi. Bir siqim tuproqni olmoqchi bo'lib yerga kaftini urdi. Biroq titroq barmoqlarini qancha jamlashga urinmasin, tuproq to'kilib ketaverar, bari urinishlari zoe ketardi